| To'qimachilik klasterlari eksport salohiyatini oshirish yo'llari..... | 1079 |
| Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich | |
| Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье | 1084 |
| Зохидов Шахзод Шавкат угли | |
| Tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash tizimi..... | 1087 |
| Sabirova Asal Shuhratovna | |
| Innovatsion bank mahsulotlarini tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribasi va raqamli transformatsiyaning roli..... | 1091 |
| Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li | |
| Hududiy turizm xizmatlarining mohiyati, zaruriyati va ahamiyati | 1099 |
| Toshmamatova Marjona Olimjon qizi | |



HUDUDIY TURIZM XIZMATLARINING MOHIYATI, ZARURIYATI VA AHAMIYATI

O'DK:338.84

Toshmamatova Marjona Olimjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududiy turizm xizmatlarini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, hududiy turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari va omillari, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm xizmatlarini roli, hududlarda turizm xizmatlarini rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish, shuningdek yangi xizmat turlarini tadbiq etish, turistik resurslardan maqsadli foydalanish, hududiy turizm xizmatlarini takomil-lashtirishda xorij tajribasidan foydalanish, turizm xizmatlarini raqamlashtirish, turizm xizmatlari bozorini tartibga solishning ilmiy-uslubiy yondoshuvlari to'g'risida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovasion, rekreasion hududlar, turistik resurs, iqtisodiy samaradorlik, zamonaviy xizmatlar, asosiy tamoyillar, barqaror iqtisodiyot, raqamli xizmatlar, turizm xizmatlari, hududiy turizm xizmatlarining mohiyati.

Abstract: In this article, increasing the economic efficiency of the development of regional tourism services, the main principles and factors of the development of regional tourism services, the role of tourism services in the sustainable development of the economy, attracting direct investments to the development of tourism services in the regions, job opportunities, as well as the implementation of new types of services, the targeted use of tourist resources, the use of foreign experience in the improvement of regional tourism services, the digitalization of tourism services, and the regulation of the tourism services market are discussed.

Key words: innovative, recreational areas, tourist resources, economic efficiency, modern services, basic principles, sustainable economy, digital services, tourism services, nature of regional tourism services.

Аннотация: В данной статье рассматриваются повышение экономической эффективности развития региональных туристических услуг, основные принципы и факторы развития региональных туристических услуг, роль туристических услуг в устойчивом развитии экономики, привлечение прямых инвестиций в развитие туристических услуг в регионах, новые работы. Представлены мнения и комментарии по научно-методическим подходам к созданию новых услуг, а также реализации новых видов услуг, целевому использованию туристических ресурсов, использованию зарубежного опыта в совершенствовании региональных туристических услуг, цифровизация туристических услуг и регулирование рынка туристических услуг.

Ключевые слова: инновации, рекреационные территории, туристские ресурсы, экономическая эффективность, современные услуги, базовые принципы, устойчивая экономика, цифровые услуги, туристические услуги, сущность региональных туристических услуг.

KIRISH

XIX asrning boshlarida iqtisodiyotning tarmog'i sifatida shakllangan turizm hozirda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Ko'plab shaharlar turizm sektoridagi yuqori suratli o'sishlarga tayyor emas edi, chunki ko'plab turistik hududlar turistlar oqimiga xizmat ko'rsatish rivojlanmagan edi. Ammo, so'nggi yillarda turizm tarmoqlarida xizmat turlarining yaqqol ortishi va yuqori salohiyatli xizmatlarning yo'lga qo'yilganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Turizm sanoatida boshqa sohalardan farqli o'laroq, bitta aniq mahsulot mavjud emas. U ko'plab sanoat tarmoqlarini, jumladan turar joy, transport, tarixiy binolar, ko'ngil ochar joylar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Keng ma'noda turizm odamlarning dam olish, biznes, sog'liq yoki boshqa sabablarga ko'ra odatdagi muhitdan tashqari joylarda sayohat qilishlari deb ta'riflanadi.

Jahonda turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishga asosiy to'siq bo'lib kelayotgan muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini izlashga qaratilgan tadqiqotlarni o'tkazilmoqda. Bu jarayonda hududiy turizmga mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida qaralmoqda va milliy iqtisodiyotda turizmni rivojlantirishning samarali modelini ishlab chiqishga alohida etibor berilmoqda. Bunda hududiy turizmga to'g'ri-



dan-to'g'ri investisiyalarni jalb qilish va turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish muhim masalalar qatoriga kiritilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Global miqyosda turizmning yalpi ichki mahsulotga (YalM) qo'shgan to'g'ri-dan-to'g'ri hissasi 2022-yilda taxminan 7,7 trillion AQSh dollarini tashkil etdi¹. Bu global yalpi ichki mahsulotning 7,6 foizini tashkil qiladi. Turizm sohasi butun dunyo mamlakatlarida rivojlantirilmoqda va bu albatta mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Turizm tarmog'ining rivojlanishida esa sohadagi xizmatlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida turistik xizmatlarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Turistik xizmatlar-joylashtirish, ovqatlanirish, transport, ekskursiya va maslahat xizmati ko'rsatish bo'yicha xizmatlar, shuningdek turist va ekskursantning ehtiyojlarinin qanoatlantirishga qaratilgan xizmatlar"². Turizm sanoati turistlar ehtiyojiga ko'ra keng miqyosdagi xizmatlar taklif etadi. Hududlarda turizm xizmatlari esa turizm tarmog'ining rivojiga hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O. Dustmurodov (2023) "Basic Principles and Factors for Improving the Economic Efficiency of Regional Tourism. European Journal of Business Startups and Open Society" nomli maqolasida Hududiy turizmni rivojlantirishga iqtisodiyotning barcha aloqador tarmoqlarini rivojlantirish orqali erishiladi. Qachonki infurotuzulma yaxshi rivojlansa turistlarga kompleks xizmat ko'rsatish imkoniyatlari kengayadi hududlarga tashrif buyurgan turistlardan olingan daromadlar mazkur hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi degan fikrni keltirgan.

Shuningdek, Pitana & Putu, (2019) "Challenging the Giants: Factors Contributing to Local Homestay Competitiveness in Ubud Bali" tadqiqotlarida turizm sanoatining rivojlanishi undagi raqobatbardoshligini ham oshiradi hamda bu albatta jamiyatning faravonligiga ta'sir qiladi, hududlarda turizm sektorining rivojlanganligi mintaqa aholisining daromadini oshiradi, ish o'rinlari yaratiladi. Tashrif buyuradgan sayyohlar oqimining ortib borishi turizm uchun iste'mol ehtiyojlarining ham ortishiga sabab bo'lishi ko'rsatadi. Corte. V. (2015). "Customer Satisfaction in Tourist Destination: The Case of Tourism Offer in The City Of Naples" nomli tadqiqotlarida ta'kidlaganidek hududiy turizm xizmatlari sayyohlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish uchun ahamiyatlidir va sayyohlarning ijobiy taasurotlari ularning qayta kelishi va boshqalarga tavsiya qilishini ta'minlaydi va bu esa o'z navbatida sayohatchilar zanjiri (jonli reklama)ni shakllantiradi hududlarda turizm xizmatlarini rivojlantirishda mazkur jarayon muhim ahamiyatga ega. Shuningdek daromad va foydani oshirishga sezilarli yordam beradi.

Moraru (2017) "Student mobility – driver of growth in the travel and tourism industry; case study: Erasmus students' travel preferences" nomli tadqiqotda keltirgan fikriga ko'ra turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va strategik yondashuvlar bilan turizm xizmatlarini rivojlantirish mintaqa turizmining raqobatbardoshligini oshiradi. Qolaversa, turistlar oqimini ham ta'minlab iqtisodiy beqarorlikni oldini oladi. Hududiy turizm xizmatlari turizm industriyasining rivojlanishidagi asosiy omil bo'lib, bunda turizm xizmatlarining sifati ham muhim hisoblanadi.

K. Douglas Hoffman va John E.G. Bateson (2006) "Services Marketing–Concept, Strategies & Cases" nomli ilmy ishlarida ko'rsatilayotgan turizm xizmatlaring sifati bu iste'molchi tomonidan shakllangan munosabatdir deya urg'u beradi. Xizmat sifati- mijozlar ehtiyojini qondirish sifatida asta-sekin e'tirof etilgan raqobatbardoshlikka erishish uchun asosiy omillardan foydalaniladi va mijozlarni ushlab turishda asosiy omil hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida hududiy turizm xizmatlarining turlari va mohiyati, turizm xizmatlarining turizm sanoati rivojidagi ahamiyati, turistlar tashrifini oshirishda hududiy turizm xizmatlari sifatining zaruriyati haqida o'rganilib, mazkur yo'nalish bo'yicha olimlar va mutaxassislar ilmiy ishlari va maqolalaridagi ma'lumotlarga tayangan holda, hamda tourcentralasia.com, stat.uz internet saytlaridan statistik ma'lumotlar, lex.uz saytidan Prezident qarorlari o'rganilib, tahlil qilingan holda hududiy turizm xizmatlarining asosiy mohiyati va uning turizm sektori-dagi ahamiyati haqida aniq ma'lumotlar keltirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon sayyohlik sanoatida turizm xizmatlari muhim ahamiyat kasb etadi chunki butun dunyo bo'ylab sayohatchilarning turli ehtiyojlarini qondiradi. Xizmat ko'rsatish sohasi mahsulot ishlab chiqarmaydi, lekin u turli ijtimoiy tabaqalardagi odamlarga keng miqyosda xizmat ko'rsatishga qaratilgan. Turizm o'zaro bog'liq bo'lgan sanoat va savdolarni, jumladan mehmonxona va transport sektorlarini o'z ichiga oladi. Turizm xizmatlari odamlarni belgilangan joyga jalb qilish, ularni tashish, uy-joy bilan ta'minlash, ovqatlanirish va dam olish kabi

1 <https://www.statista.com/statistics/233223/travel-and-tourism-total-economic-contribution-worldwide>

2 <https://lex.uz/docs/-4428097>



ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni o'z ichiga oladi. Bu jarayon turizm infratuzilmani yaxshilanishiga olib keladi va mamlakat hududlarining rivojlanishga hissa qo'shadi.

Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2023-yil 29-mart kuni turizm xizmatlar ko'lamini kengaytirish va infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha videoselekt yig'ilishi o'tkazilib, unda turistik xizmat turlarini ko'paytirish bo'yicha alohida topshiriqlar belgilandi³. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish, Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish va sohani raqamlashtirish, Yangi turizm yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda O'zbekistonning bu boradagi imijini yanada yaxshilash, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida amalga oshiriladigan ishlar yo'nalishida madaniy tadbirlar tashkil etish va targ'ibotlar olib borish kabilar. Oliy ta'lim tashkilotlariga hududlarning turizm salohiyatini oshirishga ko'maklashish, talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash, hududlardagi aholi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, kadrlar malakasini oshirish maqsadida hududlar birlashtirildi. Turizm mahsulotini xorijiy bozorlarda keng targ'ib qilish maqsadida 50 milliard so'm ajratildi. Chora tadbirlar natijasi o'laroq, O'zbekiston turizm sanoati 2024-yilning birinchi choragidayoq keskin o'sish bo'ldi, sayyohlar soni 974,2 ming nafarga etdi va yillik o'sish 11,9 foizni tashkil etdi. Mart oyi boshi holatiga ko'ra, sayyohlarning asosiy qismi Tojikistondan kelgan bo'lib, jami 363,3 ming kishi tashrif buyurgan.

Hududiy turizmni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolar, turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy ko'rsatkichlarni baholashning nazariy, metodologik jihatlarini tadqiq qilish masalalari yetarli darajada o'rganilmaganliq tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi islohotlar va turizmga bo'lgan e'tiborning ortishi mazkur sohada tadqiqotlarning kengayishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda kishilar o'zlarining bo'sh vaqtlarida doimiy turar joylaridan boshqa mamlakat yoki o'z mamlakatlari ichida taassurot va dam olish, sog'liqni tiklash, mehmondorchilik, bilim olish yoki kasbiy amaliy maqsadlarida sayohat qilishlari hamda borgan joylarida pul bilan rag'batlantiriladigan ish bilan shug'ullanmaydigan soha – turizm keng rivojlanib bormoqda. Bu borada mamlakatimizning barcha hududlarida keng qamrovli islohotlar olib borilib, har bir hududning tabiiy-ekologik, iqtisodiy-ijtimoiy va tarixiy-geografik jihatlaridan kelib chiqqan holda ushbu soha rivojlantirilmoqda. Biroq yurtimizning turistik salohiyatini yanada oshirish, ayniqsa, sayyohlarni mamlakatimizning eng chekka hududlariga ham jalb qilish hali yetarli darajada deb bo'lmaydi. Buning uchun avvalo mamlakatimizda hududiy turizmni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, eng chekka hududlarga ham tashrif buyurib, u yerlardagi mavjud turistik imkoniyatlarni o'rganish, targ'ib qilish, bu sohada muammolarni bartaraf qilish choralarini ishlab chiqish lozim hisoblanadi.

Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi doirasida "Inson qadriini ulug'lash va faol mahalla yili"da xalq manfaatlariga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, ularning axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan 5 ta muhim tashabbus hayotga samarali tatbiq etilmoqda. Ushbu islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqimizga yetkazish, targ'ibot tadbirlarini mahallalar bo'yicha o'tkazish, aholi kayfiyatini ko'tarish maqsadida shu yilning noyabr oyida mamlakatimizning barcha hududlarida "Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash" ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etilganligi yurtimizning turistik salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Resublikasida 202-yilgacha bo'lgan davrda turizm sohasini rivojlantirish Kontseptsiyasi⁴ga ko'ra, turizm sohasida davlat siyosatining asosiy maqsadi hududiy turizmni rivojlantirish asosida turizm xizmatlar bozorini barqaror rivojlantirishda iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Turizm sohasining milliy iqtisodiyotga ko'rsatgan ijobiy ta'siri mamlakatda u faqat har tomonlama rivojlangandagina ko'rinadi, ya'ni turizm sohasining samaradorligiga uning mamlakatdagi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlar bilan parallel ravishda va o'zaro aloqada rivojlanishi natijasida erishiladi. Turizm sohasi mahalliy aholi hamda xorijiy fuqorolar boradigan mamlakat yoki mintaqalarning tarixi, u yerdagi tarixiy arxitektura obektlarlari, mahalliy aholining urf-odatlarini, ananalari, marosimlari bo'yicha bilimlarini oshirishi, dam olishi va davolanishiga sharoitlar yaratib berishi bilan bir qatorda shu mamlakat yoki mintaqa iqtisodiyotiga bevosita valyutalar oqimini olib kelishini, mahalliy aholining yashash sharoitini yaxshilash va ularni ish bilan ta'minlanishiga ko'maklashadi.

Kiruvchi turistlar hajmining kengayishi turli tarmoqlarning rivojlanishiga yordam beradi shular qatorida sug'urta sizmatlariga xam tushumlar oshadi. O'zbekistonga kelgan turistning bir kunlik turistik sug'urtasi o'rtacha bir yarim dollarga to'g'ri keladi. Endi dunyodagi turistlar soni yarim milliard bo'lib, sayohat


3 <https://president.uz/oz/lists/view/6095>

4 Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2019-y., 06/18/5611/2430-son 15 08 2019-y., 06/19/5781/3567-son, 20.09.2019 y., 06/19/5833/3774-son.



5-7 kun davom etsa, turizmning sug'urtalash sohasida aylanayotgan mablag'i hajmini baholash qiyin emas. Turizm rivojlangan mamlakatlarda maxsus tezkor xizmat guruhleri tashkil etilgan bo'lib, turistga biror kor xol bo'lsa u telefon orqali o'zining shaxsiy nomerini aytadi va unga zarur bo'lgan yordam ko'rsatiladi. Turizm statistikasiga qaraganda, sug'urta to'lash holati har bir 100 ta turistning bittasiga to'g'ri keladi.

Tashrif buyurgan har bir to'rist mamlakatimizga valyuta tushumlarini olib kirishi, ish o'rinlari ortishi milli mahsulotlar va xizmatlar esporti hajmining kengayishi kabi ijobiy omillari bilan iqtisodiy ko'rsatkichlarni oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda so'ngi yillarda turizm sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator chorra-tadbirlar amalga oshirildi. (1-rasm) Quyida O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar sonini yillar kesimida ko'rishimiz mumkin:



1-rasm: O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy turislar soni (mln) 2017–2023-yillar kesimida⁵

Sayohat hozirgi kunda ko'p maqsadlarda amalga oshiriladigan eng mashhur faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Hududlarda turizm rivojlanishida xizmat ko'rsatish sifati va tashkilot tomonidan bajariladigan ishlar muhim omil bo'lib, shu sababli, firmalar o'z xizmatlarida izchil namunaga rioya qilishlari juda muhimdir. Xizmat ko'rsatishdagi izchillik mijozlarning qaytib kelishini va bir xil sayyohlik agentligini tanlashini ta'minlaydi. Turist biznes yoki dam olish uchun sayohat qiladi va u albatta sayohat paytida yaxshi taasurot olishni kutadi. Turistlarning sayohatdan yaxshi taasurot olishlari esa, hududlardagi turizm xizmatlarining rivojlanganligiga bog'liq. Quyida turizm tarmog'idagi xizmat turlarini ko'rishimiz mumkin:


Turizm xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib ularni quyida ko'rishimiz mumkin:

- **Turli xillik** ya'ni turizm mahsuloti bir xil emas. Har bir turizm xizmatlari o'ziga xos bo'lib, har qanday mahsulotni mijozlar bir xilda qabul qilmaydi. Hududiy turizm xizmatlariga tashqi omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Ammo, xizmat ko'rsatish xodimlarni o'qitish, sifati nazoratga olish va ma'lum tartib qoidalar orqali ba'zi turdagi xizmatlarni standartlashtirishga harakat qilinadi.
- **Nomoddiylik** – Turistik mahsulotlar, barcha xizmatlar kabi nomoddiydir. Sotib olishdan oldin ularni ko'rish, sinab ko'rish, his qilish, teginish yoki namuna olish mumkin emas.
- **Xususiy sektorga asoslanganligi** – Hukumatlar turizm sanoatiga aralashuvi nisbatan kam bo'lib, turizm sanoatining faoliyati uchun muhitni hukumatlar shakllantiradi.
- **Tez buziladigan** – Turizm mahsulotlari tez buziladigan mahsulotlardir. Ular moddiy mahsulotlardan farqli o'laroq, keyinchalik foydalanish uchun saqlanishi mumkin emas. Shu sababli xizmatlarda chegir-malarning keng tarqalganligi turistik operator oldida turgan asosiy muammoga, ya'ni talabning o'zgarishiga olib keladi.

5 <https://tourcentralasia.com/uzbekistan/uzbekistan-tourism-industry-statistics/>



- **Zaif** – Turizm xizmatlari boshqa sohalarga qaraganda talabning mavsumiy o'zgarishiga nisbatan zaifroq. Talabning o'zgarishi ko'rinmas bo'lishi mumkin, ba'zan tabiiy sabablarga ko'ra. Tabiiy ofatlar (Turkiya zilzila) va iqlimni o'zgarishi, xalqaro tadbirlar va yoki urush (Rossiya va Ukraina).
- **Mavsumiylik va talabning tebranishlari** – Turizm sohasida yilning turli fasllarida talabning sezilarli tebranishlarini umumiy xususiyatdir. Natijada, ko'plab sayyohlik korxonalarining bandlik ko'rsatkichlari eng yuqori mavsumda 90 dan 100 foizgacha ko'tariladi, ammo talabning pasayishi bilan 30 foizga yoki undan kamroq darajaga tushadi. Bundan tashqari, turizmi korxonalari mavsumiy yopilishi odatiy holdir.
- **Sektorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik** – Turizmning o'ziga xos xususiyati uning yuqori darajadagi o'zaro bog'liqligidir. Masalan, kurort yoki mehmonxonani rivojlantirish turistlarni ushbu ob'ektlarga olib kelish uchun mos aeroportlar va yo'llarsiz bo'lmaydi. Transport infratuzilmasining rivojlanganligi sayyohlarni jalb qilishga yordam beradi.



2-rasm: Turizm xizmatlar bozorida asosiy xizmatlar

Xizmat ko'rsatish operatsiyalarining yuqori qat'iy xarajatlari-Sayohat va turizm sanoatida, odatda, xizmatlar yuqori doimiy xarajatlarga ega.

Turistik mahsulotlarning o'zaro bog'liqligi- Turistlar ijobiy taasurot olishlari uchun turizm sanoati bilan shug'ullanadigan barcha tashkilotlar mukammal muvofiqlikda ishlashi kerak. Belgilangan joydagi turistik diqqatga sazovor joylarning boyligi bir-biriga bog'liq.

M. & Khan, M. A. (2021) ta'kidlaganidek yuqori taasurot olgan sayohatchilar kompaniya xizmatlarini yoki mahsulotlarini boshqalarga tavsiya qilishlari ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu bilan birga yuqori darajada taasurot olgan iste'molchilar nafaqat ijobiy imidjni tarqatadilar, balki qayta tashrif buyurish ishtiyoqida ham bo'lishadi.

Sayohat maqsadlari turlicha: dam olish, biznes, sog'lik, o'qish va juda ko'plab, va bunda turistik joyni tanlashda qaror qabul qilish sayyohlar uchun juda qiyin va muhim hisoblanadi. Sayyohlar odatda tanlov qilishdan oldin ma'lumotlar izlaydilar. Kerakli ma'lumotni olgandan so'ng, sayohatchilar qaror qabul qilish jarayonida ko'plab fikrlar ta'sir qilishi mumkin. Har bir inson o'zi qaror qabul qilishiga qaramay, uning tanloviga ba'zi muhim omillar ham ta'sir qiladi. Masalan, yaqinlarning tavsiyalari, Internet reklamari, xavfsizlik, jozibali joylar, tarixiy binolar, atrof muhit, milliy taomlar va juda ko'plab omillar.

Shuni unutmaslik lozimki hududiy turizm xizmatlarining yuqori darajada yo'lga qo'yilganligi va turistlar kutgan darajada bo'lishi turizm sanoatining rivojlanishidagi muhim omil hisoblanadi. Turizm ko'plab mintaqaviy iqtisodlarda muhim ahamiyatga ega ekanligi ma'lum. Chunki turizm maqsadlarida yaratilgan infratuzilma




mahalliy va mintaqaviy rivojlanishga hissa qo'shadi, yaratilgan ish o'rinlari esa sanoat yoki qishloqdagi tanaz-zulga qarshi turishga yordam beradi.

Hududiy turizmni rivojlantirishda avvalambor mintaqalararo turizm, qo'shni mamalatlarga sayohatlarni rag'batlantirish muhim omil hisoblanadi. Bunda qo'shni mamalaktalarga o'xshashliklar bu diniy e'tiqod, madaniyat, geografik bo'lishi mumkin landshaftlar va tarix elementlari, boshqa jihatlar turizmni rag'batlantiradi va bu o'z navbatida mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Turizm sektori raqobatbardosh va yuqori darajada bo'lishi uchun to'g'ri va samarali strategiyaga ega bo'lishdan tashqari, u yetarli infratuzilmani ham ta'minlay olishi kerak chunki bu ob'ektlar turistlarga eng yaxshi xizmat ko'rsatish va funktsiyalarni ta'minlashning asosiy darvozasi hisoblanadi. Turistlarning istalgan turistik manzillarga yetib borishi uchun turli qulayliklar yaratuvchi, qulaylikni ta'minlovchi, sayohat paytida ularning xavfsizligini kafolatlaydi bularning barchasi turizm sanoatining davom yetishini ta'minlaydi va albatta bu orqali iqtisodiy o'sishni oshirishga maqbul hissa qo'shadi.

Turizmda mijozlarga xizmat ko'rsatish orqali iste'molchilar ijobiy taasurotlar olishadi yokida aksi ham bo'lishi mumkin. Ijobiy sayohat yoki faoliyatni yaratish uchun sarflangan barcha mashaqqatli mehnatni bir-gina sifatsiz xizmat yo'q qiladi. Quyida turizm xizmatlarining turizm bozori rivojidagi ijobiy va salbiy ta'sirini ko'rishimiz mumkin:



3-rasm: Turistlarga ko'rsatilgan xizmatlarning turizm xizmatlar bozoriga salbiy va ijobiy ta'sirining tahlili

Turistlarning sayohatdan olgan taasurotlari ularning hayot sifati (QOL) ta'sir qiladi. Amerika Stress Instituti (AIS) ma'lumotlariga ko'ra⁶, 2022-yilda odamlarning taxminan 33 foizi haddan tashqari ko'p stressni boshdan kechirishdi, bu esa albatta odamlarning hayot sifati yomonlashishiga sabab bo'ldi. K'oplab olimlar shuni ta'kidlashadiki, sayohat va turizm insonning shaxsiy sog'ligi va hayot sifatiga yuqori darajada ta'sir qiladi. Smith and Diekmann (2017) ta'kidlashicha, sayohat qilish aqliy va jismoniy salomatlikka foyda keltiradi, aksariyat holda turistlar yaxshi vaqt o'tkazish maqsadida sayohat qilishadi. Turistlar uchun yaxshi sayohatni ta'minlashda turizm xizmatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda O'zbekistonda so'nggi yillardagi iqtisodiy va siyosiy sohadagi o'zgarishlar iqtisodiyot tarmoqlarining xo'jalik faoliyatida, shuningdek ulardagi boshqaruv tizimining ham tuzilmaviy o'zgarishini taqozo etmoqda. Davlat tomonidan hududlarda turizm sohasini yaxlit rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish siyosati hududlarda muhim ahamiyatga egadir. Turizmga strategik maqomining berilishi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi islohotlar va turizmga bo'lgan e'tiborning ortishi mazkur sohada tadqiqotlarning kengayishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasida 2025-yilgacha bo'lgan davrda turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasiga ko'ra, turizm sohasida davlat siyosatining asosiy maqsadi hududiy turizmni barqaror rivojlantirish asosida turizm xizmatlar bozorini barqaror rivojlanishiga erishishni ta'minlashga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 18-fevraldagi PQ-135-sonli qaroriga muvofiq "Turizm xizmatlarinin sertifikatlash markazi" tashkil etilgan bo'lib, korxonalar faoliyatining asosiy maqsadlari tur-

6 <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0261517715001661>



istik zimatlarni, mehmonxona va turistik-ekskursiya xizmatlarini sertifikatlash va turistik industriya obektlarini tasniflashni amalga oshirishdan iborat. Bunda o'zbekistonda turistlarga xizmat ko'rsatish darajasini jahon standartlariga moslashtirish nazarda tutilgan.

Bizning fikrimizcha, hududiy turizmni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorligini oshirishning obyektiv zaruriyati va ahamiyati sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- innovasion iqtisodiyotni shakllanishi sharoitda xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy, iqtisodiy hayotdagi mavqei va rolini har tomonlama oshirishni ta'minlash;
- O'zbekistonda hududiy turizmni rivojlantirishda mazkur xizmat turlari doira-sida turistlar oqimini jalb qilishga muhim masala sifatida qarash;
- O'zbekistonda turizm bozorini rivojlantirishning bugungi bosqichida davlat tash-kilotlarining asosiy vazifasi xorijiy turistlar bilan bir qatorda mahalliy turistlarini ichki bozorga yo'naltirish;
- hududiy turistik resurslarni rivojlantirish, turistik-rekreasion salohiyatidan samarali foydalanish;
- sohada erkin raqobatni rag'batlantirish maqsadida bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy-iqtisodiy muhitni ta'minlash;
- turistik xizmatlar bozorida raqobatni himoya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Corte, V., Sciarelli, M., Cascella, C., & Gaudio, G. (2015). Customer Satisfaction in Tourist Destination: The Case of Tourism Offer in The City Of Naples. *Journal of Investment and Management*, 4 (1-1), 39-50.
2. Gheorghe, C. M., Moraru, A.-V., & Anton, A.-M. (2017). Student mobility – driver of growth in the travel and tourism industry; case study: Erasmus students' travel preferences. *Romanian Economic Business Review*, 12(4), 65-71
3. Ismatilloevich, D. O. (2023). Basic Principles and Factors for Improving the Economic Efficiency of Regional Tourism. *European Journal of Business Startups and Open Society*, 3(3), 53-62.
4. K. Douglas Hoffman and John E.G. Bateson(2006) *Services Marketing–Concept, Strategies & Cases*
5. Putu Diah Sastri Pitrantri* & I Gde Pitana, 2019. "Challenging the Giants: Factors Contributing to Local Homestay Competitiveness in Ubud Bali," *The Journal of Social Sciences Research*, Academic Research Publishing Group, vol. 5(3), pages 796-802, 03-2019.

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.